

**MUSIQA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARINING O‘RNI**

**THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION
TECHNOLOGIES IN TEACHING MUSIC**

**РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОММУНИКАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МУЗЫКЕ**

Anotatsiya: Musiqa fanini o‘qitishda axborot texnologiyalarning o‘rni qanchalik beqiyos, o‘quvchilar musiqa faniga bo‘lgan qiziqishlari yana ham kuchayadi.

Abstract: The greater the role of information technology in teaching music, the more students are interested in music

Аннотация: Чем больше роль информационных технологий в обучении музыке, тем больше интерес студентов к музыке.

Kalit so‘zlar: Kompyuter, dasturlash, texnologiya, elektron, masofaviy

Key words: computer, programming, technology, electronics, remote control.

Ключевые слова: компьютер, программирование, технология, электроника, пульт.

Charos Islomovna Berkinova-o‘qituvchi,
Suyunov Xusan–talaba

A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti

Xayotimizning barcha jabhalarida bo‘lganidek, ta‘lim tizimida ham islohotlar yo‘lga qo‘yildiki, bunda ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini olib kirish, ta‘limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda oliy o‘quv yurtlaridagi ta‘lim-tarbiya ishining asosiy shakli - o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish va talabalar bilim darajasini xolis baholashga bo‘lgan e‘tibor oshib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir davrda ta‘lim jarayoni tizimida

ijobiy o'zgarishlar, yangiliklar qilishni taqozo etadi. Fan- texnika rivojlanishi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi fanlarni o'qitish shakl va metodlarini uning mazmuniga mos holda takomillashtirish, samaradorligini oshirish, talabalar tomonidan o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish hamda ular egallagan bilimini baholash jarayonlarini kompyuter texnologiyasi yordamida tashkil etishni talab etadi.

Kompyuterning ta'lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati beqiyos. U ta'lim tizimini ma'muriy boshqarishdan tortib alohida maktab faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishgacha, o'quv predmetlarini o'rganishni tashkil qilishdan tortib o'quvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etishgacha bo'lgan muammolarni qamrab oladi. Kompyuter ma'lumotlarni saqlovchi, ularni qayta ishlovchi, turli shakl va usullarda o'quvchilarga yetkazuvchi o'ta qulay vosita sifatida tan olinmoqda. Jamiyatda paydo bo'lgan har qanday yangilik singari dasturlashtirilgan ta'limning ijobiy tomonlari bilan birga ayrim kamchiliklari ham mavjud edi. Shunga qaramasdan, dasturlashtirilgan ta'lim o'quv-tarbiya ishlarida chuqur ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Mutaxassis va o'qituvchilar o'quv materialini tahlil qilishning yangi uslubiyatini o'zlashtirib oldilar, o'quv materiali bo'yicha axborotlarni qabul qilish, ularni atroflicha mustahkamlash, sinash yagona tizimga aylandi.

Axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida, ayniksa musiqa fanini o'qitishda foydalanish - darsliklarning elektron shakllari, elektron darsliklar, elektron plakatlar, musiqiy dasturlarini yaratish, musiqa notalarini o'rganish va xokazo bosqichlardan iborat bo'lib, yoshlarning musiqa faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, musiqiy qonuniyatlarni chuqurroq anglab yetishlarida, masofaviy va mustaqil ta'lim olishlarida muxim ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun musiqa fani o'qituvchilari maxsus metodik bilim va ko'nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. O'rta maxsus ta'lim bosqichlarida musiqa

fanini o'qitishni tashkil qilish masalasi, tabiiyki, musiqa fanidan axborot texnologiyalarini qo'llashni samaradorligini oshirish bilan bog'liq.

Musiqa fanini o'rganishda cholg'u asboblari sozlash ishlarini bajarish muhim o'rin egallaydi. O'quv jarayonida musiqa asboblari bilan ishlash ko'nikmasi o'qitishning samaradorligini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirralidir. Uni hal etish ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishning turlariga xos bir qator xususiyatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Shulardan eng muhimi nazariy bilimlarni amalda tekshirib ko'rish orqali, talabalarni ijodkorlik qobiliyatlarini oshirish hisoblanadi, har qanday bilim ma'lum vaqt o'tgandan keyin xotiradan o'chib ketishi tabiiy holdir. Nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida o'quv jarayonida ma'ruza mashg'ulotlarini axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish orqali talabalarning ijodkorlik va bilim faoliyatini oshirish muammosini hal etish mumkin. Hozirgi zamon ta'lim tizimida hukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim, tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirish, yangi ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida noan'anaviy, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda dars o'tish davr talabidir. Dars samaradorligini oshirishda musiqa fani o'qituvchisi avvalo maqsad belgilab olishi, noan'anaviy va an'anaviy darslarning farqini ko'ra olishi shart.

Noan'anaviy darslardan maqsad talabalarning musiqa asboblari o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'tarish uchun, fanni o'qitishda, musiqiy tajribalarni yanada mazmunli, qiziqarli va va tushunarli o'tkazishda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik kiritib, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish hamda talabalarni tez va samarali baholashga erishishdir.

Kompyuterli ta'limning o'ziga xos jihatlari bor: ta'lim mazmunining didaktik ishlov berilganligi, o'quv-tarbiya jarayonining ham xotiraga, ham tafakkurga mo'ljallanganligi, o'quvchilar o'zlashtirishining individualligi, ta'limda o'quvchilar faolligi kabi xususiyatlar kompyuterli ta'limning o'zigagina xos sifatlardir. Ularga rioya qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga olib keladi.

Komp'yuterda animatsion model orkali amalga oshirish jarayoni va o'kuvchilarga ko'rsatish bir tomondan, ma'ruza mashg'ulotlarida musiqiy tajribalarni o'tkazish uchun sarflanadigan vaqt va shunga o'xshash jarayonlarni tejashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, ob'ektlar ustida olib borilayotgan ishlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rish, kuzatib borish, muloxaza yuritish, o'zaro fikr almashinishdek foydali imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. -T.: O'qituvchi, 1990. –230 b.

2. Talipova J. Noan'anaviy ta'limning didaktik asoslari. Ped. fan. nom. ... dis. -T., 1995. -158 b.

3. Hayitov A.G'. Dars jarayonini kompyuterlashtirish xususida //J. Uzluksiz ta'lim, 2004, 3-son. –B. 46—52.

4. Berkinova, C. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM FAOLIYATINI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI. *Maktabgacha ta'lim jurnali*..

5. Dildora Haydarkulovna Toshpulatova, Alisher Abdurashidovich Berkinov, Bekzod Tirkashev ENERGY PARAMETERS OF HETEROSTRUCTURAL SOLAR PHOTOCELLS // Academic research in educational sciences. 2021. №11.

6. Charos Islomovna Berkinova MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOG TARBIYACHINING NUTQIY FAOLLIYATINI O'ZIGA XOSLIGI // Academic research in educational sciences. 2021. №10.

7. Berkinov, A. (2019). TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL AND CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN THE PROCESS OF SOLVING TASKS ON MOLECULAR PHYSICS.